

HOZIRJAVOB OLIM

Qadim zamonlarda Bag‘dodda No‘mon (Imomi A‘zam Abu Hanifa) ismli musulmonlarning eng buyuk olimlaridan biri yashagan ekan. U shuhrati butun dunyoga yoyilgan ilmi donish bo‘lgan ekan. Minglab shogirdlar yetishtirgan, atrofidagi hamma odamlar unga hurmat ko‘rsatishar ekan.

O‘sha davrda yana bir mashhur olim “Alloh yo‘q” degan g‘oyaga odamlarni da‘vat qilar, qayerga borsa, olimlar bilan Allohning yo‘qligini isbotlashga harakat qilib bahslashar ekan.

Bu e‘tiqodsiz olim Abu Hanifaning dovrug‘ini eshitgandi. O‘zini u bilan teng bilib bahslashmoqchi bo‘libdi. Bag‘dodga kelibdi, Abu Hanifani topib, unga “Alloh bormi yo yo‘qmi?” degan mavzuda gap ochibdi. O‘zining qarashlarini bayon qilibdi. Abu Hanifaning gap-so‘zlariga javob

bermabdi. Ertasi kuni ma'lum soatda bir yerda uchrashishga kelishib olishibdi, o'shanda u o'zining javobini berishini aytibdi.

Bag'dodning o'rtasidan Dajla daryosi oqib o'tar va u shaharni qoq ikkiga ajratib turar edi.

Ertasiga Abu Hanifa uchrashuv joyiga belgilangan soatda – vaqtida kelmabdi. Dinsiz

olim rosa betoqat bo‘libdi. Endi ketmoqchi bo‘lib turgan ekan, Abu Hanifa kelib qolibdi.

Dinsiz olim Abu Hanifaga qarab:

– Nega kech kelding? Yoki men bilan bahslashishdan shunchalik qo‘rqdingmi? – debdi.

Abu Hanifa bu so‘zlardan kulib:

– Yo‘q, qo‘rqmadim. Bilasanku, men daryoning narigi qirg‘og‘ida yashayman. Kecha daryo ustidagi ko‘prikni bo‘ron uchirib ketibdi. Bir zumda hech qanday ustasiz, muhandissiz bir ko‘prik bunyod bo‘lishini istadim. Men u yerdagi daraxtlar va toshlarga amr qildim: “Hey daraxtlar, toshlar! Tezda men uchun ko‘prik bo‘ling!”. Istagim amalga oshdi-yu, biroq buning uchun sal ko‘proq vaqt ketdi. Men hozir o‘sha ko‘prikdan o‘tib, va‘dalashgan joyga yetib keldim, – debdi.

E’tiqodsiz olim qah-qah otib kulibdi:

– Ey, xaloyiq! Shumi siz ishongan eng zo‘r olim? Hech zamonda ustalar, quruvchilar, muhandislarsiz ko‘prik qurilganmi? Bu gaplarga ishonish ahmoqlikdan boshqa narsa emas!

Abu Hanifa shunday debdi:

bermabdi. Ertasi kuni ma'lum soatda bir yerda uchrashishga kelishib olishibdi, o'shanda u o'zining javobini berishini aytibdi.

Bag'dodning o'rtasidan Dajla daryosi oqib o'tar va u shaharni qoq ikkiga ajratib turar edi.

Ertasiga Abu Hanifa uchrashuv joyiga belgilangan soatda – vaqtida kelmabdi. Dinsiz

olim rosa betoqat bo‘libdi. Endi ketmoqchi bo‘lib turgan ekan, Abu Hanifa kelib qolibdi.

Dinsiz olim Abu Hanifaga qarab:

– Nega kech kelding? Yoki men bilan bahslashishdan shunchalik qo‘rqdingmi? – debdi.

Abu Hanifa bu so‘zlardan kulib:

– Yo‘q, qo‘rqmadim. Bilasanku, men daryoning narigi qirg‘og‘ida yashayman. Kecha daryo ustidagi ko‘prikni bo‘ron uchirib ketibdi. Bir zumda hech qanday ustasiz, muhandissiz bir ko‘prik bunyod bo‘lishini istadim. Men u yerdagi daraxtlar va toshlarga amr qildim: “Hey daraxtlar, toshlar! Tezda men uchun ko‘prik bo‘ling!”. Istagim amalga oshdi-yu, biroq buning uchun sal ko‘proq vaqt ketdi. Men hozir o‘sha ko‘prikdan o‘tib, va‘dalashgan joyga yetib keldim, – debdi.

E‘tiqodsiz olim qah-qah otib kulibdi:

– Ey, xaloyiq! Shumi siz ishongan eng zo‘r olim? Hech zamonda ustalar, quruvchilar, muhandislarsiz ko‘prik qurilganmi? Bu gaplarga ishonish ahmoqlikdan boshqa narsa emas!

Abu Hanifa shunday debdi:

bermabdi. Ertasi kuni ma'lum soatda bir yerda uchrashishga kelishib olishibdi, o'shanda u o'zining javobini berishini aytibdi.

Bag'dodning o'rtasidan Dajla daryosi oqib o'tar va u shaharni qoq ikkiga ajratib turar edi.

Ertasiga Abu Hanifa uchrashuv joyiga belgilangan soatda – vaqtida kelmabdi. Dinsiz

olim rosa betoqat bo‘libdi. Endi ketmoqchi bo‘lib turgan ekan, Abu Hanifa kelib qolibdi.

Dinsiz olim Abu Hanifaga qarab:

– Nega kech kelding? Yoki men bilan bahslashishdan shunchalik qo‘rqdingmi? – debdi.

Abu Hanifa bu so‘zlardan kulib:

– Yo‘q, qo‘rqmadim. Bilasanku, men daryoning narigi qirg‘og‘ida yashayman. Kecha daryo ustidagi ko‘prikni bo‘ron uchirib ketibdi. Bir zumda hech qanday ustasiz, muhandissiz bir ko‘prik bunyod bo‘lishini istadim. Men u yerdagi daraxtlar va toshlarga amr qildim: “Hey daraxtlar, toshlar! Tezda men uchun ko‘prik bo‘ling!”. Istagim amalga oshdi-yu, biroq buning uchun sal ko‘proq vaqt ketdi. Men hozir o‘sha ko‘prikdan o‘tib, va‘dalashgan joyga yetib keldim, – debdi.

E’tiqodsiz olim qah-qah otib kulibdi:

– Ey, xaloyiq! Shumi siz ishongan eng zo‘r olim? Hech zamonda ustalar, quruvchilar, muhandislarsiz ko‘prik qurilganmi? Bu gaplarga ishonish ahmoqlikdan boshqa narsa emas!

Abu Hanifa shunday debdi:

– Hoy nodon! Modomiki o‘z-o‘zidan ko‘prik bunyod bo‘lmaydi deyapsan, u holda bu cheksiz-chegarasiz koinot qanday qilib o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan? Mayli, uni qo‘ya tur, bu dunyodagi hatto novdaga osilib turgan bitta yaproq ham o‘z-o‘zidan qimirlamaydi.

Hamma narsaning sababi, sababchisi borligini anglashga sening aqling hali ham ojizlik qilyaptimi?

Dinsiz, e'tiqodsiz olim nima deyishini bilmay qolibdi. Oxiri:

– Agar Allohning bir qudratini ko'rsatsang, bu mavzuga nuqta qo'yaman. Men ham Uning borligiga iymon keltiraman, – debdi.

Abu Hanifa bir kosaga sut solibdi:

– Ayt-chi, yog' va pishloq nimadan tayyorlanadi? – deb so'rabdi.

– Nimadan bo'lardi, sutdan, – javob qilibdi dinsiz odam.

– Xo'sh, bo'lmasa, mana shu sutning ichidagi yog' va pishloqni ajratib ko'rsata olasanmi? – debdi Abu Hanifa.

– Uning ichida yog' va pishloq albatta bor, ammo ular ko'zga ko'rinmaydi. Chunki yog' sutning har tarafiga yoyilib ketgan, bitta joyda yig'ilib turmaydi, – deya ojizligini yashirib, vaziyatdan chiqmoqchi bo'libdi dinsiz odam.

Abu Hanifa:

– Buning ichidagi yog' va pishloqning ko'zga ko'rinmasligiga ishonasan. Ammo nega buyuk va yaratuvchi Allohning

ko‘rinmasligiga ishonmaysan? Bu sutda yog‘ va pishloq bor bo‘lsa, bilginki, Alloh ham har yerda va har doim bordir, – deb javob beribdi.

Bu so‘zlardan ta’sirlangan dinsiz olim o‘z fikrlarining xato ekanligini tushunib yetibdi. Bu dunyoni yaratgan, yo‘qdan bor qilgan Tangrining ko‘zga ko‘rinmasligiga ishonch hosil qilibdi. Kechirim so‘rab, o‘zining da’vatidan voz kechibdi. Allohning borligiga va uning yakkaligiga iymon keltiribdi.

O‘git:

Aql egalari har qanday vaziyatdan qutulib, o‘z e’tiqodini isbotlay oladilar.

Bu dunyoda ham, oxiratda ham insonning najotkori aqlidir.

Maqol:

Husn to‘yda kerak,

Aql – kunda.

SO‘NGGI PUSHAYMONLIK

Qadim zamonlarda chiroyli, muhtasham uylar quradigan quruvchi bo‘lgan ekan. Keksayib, qo‘li bir ishga bormay qolgach, boshlig‘iga:

– Xo‘jayin, endi men qaridim, charchadim, kuchim ham, madorim ham qolmadi. Ruxsat bersangiz ishdan bo‘shasam. Qolgan hayotimni xotinim, bolalarim, nabiralarim bilan birga o‘tkazsam, – debdi.

Boshlig‘i uning ishdan bo‘shayotganiga achinibdi:

– Juda ham go‘zal, ko‘rkam uylar, inshootlar barpo etding, sen bilan birga ishlashdan boshim ko‘kda edi, g‘oyat mamnun edim. Modomiki, ishdan bo‘shashga qaror qilibsang, o‘zing bilasang. Lekin senga so‘nggi iltimosim bor. Menga oxirgi mara ba bir uy qurib bersang-da, so‘ngra ishingni tark etsang degandim. Bu sening eng so‘nggi asaring, sendan eng so‘nggi yodgorlik bo‘lib qoladi, – debdi.

Quruvchi bu taklifni qabul qilibdi. Darrov ishga kirishibdi. “Uy qanday chiqsa chiqsin,